

## 9 nafar mahkum jazo o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilindi



Sayyor sud majlisida Probatsiya guruhi hisobida turib, mehnatga halol munosabatda bo'lib, tuzalish yo'liga o'tgan hamda o'rnatilgan tartib-qoidalariga qat'iy rioya qilgan 9 nafar mahkum jazo o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilindi, shuningdek bir nafar mahkumga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 481-moddasi 6-qismiga asosan tayinlangan ozodlikni cheklash jazosi ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo bilan almashtirildi.

Sud-huquq sohasida konstitutsiyaviy talablar asosida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar tufayli aholining huquq va manfaatlari to'la ta'minlanmoqda.

Zero, ushbu islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad shu muqaddas zaminda yashayotgan har bir insonni rozi qilish, ularning ezgu orzularini ro'yobga chiqarish, pirovardida insonparvarlik tamoyillariga asoslangan demokratik jamiyatni barpo etishdan iboratdir.

2023 yil 27 iyul kuni Muzrabot tumani 10-sonli musiqa va san'at maktabi binosida o'tkazilgan sayyor sud majlisida jinoyat ishlari bo'yicha Muzrabot tuman sudi raisi I.Shaymanovning raisligida Muzrabot tuman IIB Probatsiya guruhida jazo o'tab turgan uch nafar mahkumlarni axloq tuzatish ishlari jazosidan, olti nafar mahkum muayyan huquqdan mahrum qilish jazosini o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish, bir nafar mahkumga nisbatan ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoni o'tashdan qasddan bo'yin tovlagani, sud tomonidan o'z zimmasiga yuklangan majburiyatlarni bajarmagani uchun boshqa jazo turiga almashtirish yuzasidan kiritilgan taqdimnomalar ko'rib chiqildi.

Sud, ish hujjatlarini atroflicha o'rganib chiqib, insonparvarlik tamoyiliga tayanib, Muzrabot tuman Ichki ishlar bo'limi Probatsiya guruhi hisobida turib, mehnatga halol munosabatda bo'lib, o'rnatilgan tartib qoidalariga rioya qilgan, o'zining hulqini ijobiy tomonga o'zgartirgan, jazoni o'tash davrida intizomiy jazoga tortilmagan, sodir etgan jinoyatining oqibatlarini to'la anglab yetib, tuzalish yo'liga o'tganligi, bundan o'zlariga tegishli xulosa chiqarganligi inobatga olinib, insonparvarlik tamoyili asosida jami to'qqiz nafar mahkumlarni O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 73-moddasiga asosan o'talmay qolgan jazo muddatidan ilgari shartli ozod qilindi.

Shuningdek, sayyor sud majlisida ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoni o'tashdan qasddan bo'yin tovlagan, sud tomonidan o'z zimmasiga yuklangan majburiyatlarni bajarmagan bir nafar mahkumga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 481-moddasi 6-qismiga asosan tayinlangan ozodlikni cheklash jazosi ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo bilan almashtirildi.

Sayyor sud majlisida ishni ko'rgan sudya tomonidan mahkumlarga ularning huquq va majburiyatlari, jazoni o'tash davrida o'rnatilgan tartib-qoidalariga qat'iy rioya qilishlari lozimligi, jazoni o'tash tartibini buzganlik uchun saqlash rejimini ashaddiy buzuvchi mahkumlarga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lgan intizomiy chora oqibatlari, shuningdek jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilinib, jazoning o'talmagan qismi mobaynida qasddan yangi jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan Jinoyat Kodeksining 60-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq jazo tayinlanish oqibatlari haqida tushuntirishlar berildi.

Sud-huquq tizimida amalga oshiriladigan barcha ishlar zamirida qonun ustuvorligini ta'minlash, odil sudlovga erishish kabi ezgu g'oyalar yotadi. Aynan inson va adolatli sud o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda qonuniylikni va adolatni ta'minlaydigan harakatlar zamirida xalqimizning osoyishta hamda rozi bo'lib yashash huquqi turibdi.

Bu bilan sud, sodir etgan jinoyatining oqibatlarini to'la anglab yetgan va axloqan tuzalish yo'liga o'tgan mahkumlarga imkon berilganligi halqimizning kechirimlilik va

bag'rikenglik kabi azaliy qadriyatlarining ruyobga chiqarilishi bilan bir qatorda jazodan ozod etilgan shaxslarning jamiyatda o'z o'rnini topishda, oila a'zolari, farzandlari, shuningdek jazodan ozod qilingan shaxslarning oilalarda tinchlik-xotirjamlikni ta'minlash bilan birga, el-yurt taraqqiyoti uchun munosib xissa qo'shishlariga yana bir imkon yaratdi.

Jamiyatimizda shaxsni tarbiyalash orqali sog'lom muhit yaratish vazifasi, nafaqat sudlarning, balki keng jamoatchilik, qolaversa, har bir fuqaroning burchi ekanini unutmaslik lozim.

**Ikrom Shaymanov,**

**Jinoyat ishlari bo'yicha Muzrabot tuman sudining raisi**